

**Kumushoy QURBANOVA,**  
*O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail: qurbanovakumushoy@gmail.com*

*FarDU dotsenti, f.f.f.d. M.A.Jo'rayeva taqrizi asosida*

## IDEAS OF ENLIGHTENMENT IN THE LITERARY ENVIRONMENT OF KHIVA

### Annotation

In the late 19th-early 20th century, Khan Muhammad Rahimkhan Feruz had an incomparable place in the literary environment of Khiva. The literary atmosphere created under the leadership of Khan was one of the efforts made to enlighten the people, of course. The work of court poets of this period and their peculiarities and innovations are partially covered in this article. In the works of the poets of this period, it is enough to encourage the people to become knowledgeable and enlightened. Enlightenment ideas, of course, caused the Jadidism movement to spread widely in our country later. This article tries to explain the possibility of significant influence on people through literature.

**Key words:** Muhammad Rahimkhan Feruz, palace literary environment, traditionalism, theme of enlightenment in poetry, Chokar, Tabibiy, Avaz O'tar.

## ИДЕИ ПРОСВЕЩЕНИЯ В ЛИТЕРАТУРНОЙ СРЕДЕ ХИВЫ

### Аннотация

Роль хана Мухаммад Рахим-хана Феруза в литературной среде Хивы конца XIX-начала XX веков неоценима. Литературная среда, созданная при хане, была, безусловно, одной из попыток сделать нацию просветленной. В этой статье частично будут освещены особенности и творчество придворных поэтов этого периода, а также нововведения. В творчестве поэтов этого периода есть и призывы к образованию, и просвещения народа. Идеи Просвещения, конечно же, впоследствии стали причиной широкого распространения джадидского движения в нашей стране. В этой статье делается попытка осветить мысль, что через литературу можно оказать значительное влияние на людей.

**Ключевые слова:** Мухаммад Рахим Хан Феруз, придворная литературная среда, традиционализм, тема просвещения в поэзии, Чакар, Табиби, Аваз Утар.

## XIVA ADABIY MUHITIDA MA'RIFATPARVARLIK G'oyalari

### Annotatsiya

XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Xiva adabiy muhitida xon Muhammad Rahimxon Feruzning o'rni beqiyos. Xon boshchiligidagi yaratilgan adabiy muhit qalqni ma'rifatli qilish uchun qilingan harakatlarning littasi edi, albatta. Bu davr saroy shoirlarining ijodi va ulardag'i o'ziga xosliklar hamda yangiliklar ushbu maqolada qisman yoritiladi. Ushbu davr shoirlari ijodida xalqni ilmi, ma'rifatli qilishga undashlar ham talaygina. Ma'rifatparvarlik g'oyalari, albatta, keyinchalik jadidchilik harakatining yurtimizda keng quloch yoyishiga sabab bo'lgan. Adabiyot orqali insonlarga sezilarli ta'sir etish mumkinligini ushbu maqolada yoritishga harakat qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Muhammad Rahimxon Feruz, saroy adabiy muhiti, an'anaviylik, she'riyatda ma'rifat mavzusi, Chokar, Tabibiy, Avaz O'tar.

**Kirish.** Bugungi kunda ajdodlarimiz yaratgan adabiy merosni yanada chuqurroq o'rganish, o'zbek tili va adabiyotimizning go'zalligi hamda boyligini kelajak avlodga chuqur anglatish borasida yurtimizda bir qancha ishlar qilinmoqda. Ayniqsa, XIX asr oxiri-XX asrning birinchi yarmida yashagan, "jadid" nomi bilan o'zlaridan bir talay ezgu ishlar qoldirgan ma'rifatparvar ajdodlarimizni oqlash, ularning ma'rifatparvarlik g'oyalarini xalqqa singdirish, ular yaratgan adabiy asarlarni yanada ko'proq ommaga targ'ib qilish hozirgi kunda dolzarb mavzuga aylangan.

Shu o'rinda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomalaridagi ushbu jumlalarni keltirib o'tsak: "Biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebafo boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, aymiqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi".

XX asr boshlarida Turkiston, Buxoro o'lksida bo'lgani kabi Xiva xonligida ham taraqqiyatparvarlik g'oyalari kengaya boshladi. Xiva adabiy muhitining o'ziga xosligi shundaki, bu yerda adabiyot va san'atning taraqqiyotida saroy muhiti yetakchilik qilgan, ya'ni hukmdorlari adabiyot va san'atga homiylik qilishgan va o'z atrofida san'at ahlini jamlab, ularning faoliyatlarini muntazam kuzatib borishgan. Dunyo tamadduniga o'zining beqiyos hissasini qo'shgan allomalarini yetishtirib bergan Xorazm madaniyati uzoq tarixga borib taqaladi. Xorazm adabiyoti, ayniqsa, Muhammad Rahimxon Feruz davrida yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Uning saroyida elliqka yaqin shoir va yozuvchilar, sozanda va go'yandalar, muarrixlar, tarjimonlar, xattotlar, noshirlar faoliyat ko'rsatgan[1]. Ularning bir guruhi saroy shahzodalarini va Komil Xorazmiy, Komiljon Devoniy, Muhammad Rahim Rog'ib, Muhammad Yusuf Chokar, Abdurazzoq Faqiriy, Ahmad Tabibiy, Mulla Bekjon Rahmon, Safo Mug'anniy kabi shoirlar yangilanayotgan adabiyotning namunalarini yaratishgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** XX asr boshlarida Xivada shakllangan jadidchilik bir qadar boshqacharoq tarixiy shart-sharoitda vujudga keldi. U bu yerda, asosan, ikkita oqimdan iborat edi. Harakatning o'ng oqimi xonlikda rivojlantayotgan savdo-sanoat korxonalarini egalari hamda yirik boylarning vakillarini o'ziga birlashtirgan edi. Bu oqimga Xiva xoni Asfandiyorxonning bosh vaziri Islomxo'ja boschchilik qilgan. Jadidchilikning o'ng oqimi o'z oldiga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o'tkazish orqali erkin bozor munosabatlarining rivojlantishiga keng yo'l ochib berishni maqsad qilib qo'ygan edi. Xivada jadidchilikning so'l oqimi esa mayda sarmoyadorlar, hunarmandlar va xalqning turli tabaqa vakillarini birlashtirgan bo'lib, qozikalon Bobooxun Salimov uning rahbari edi. Ular Xiva xonligida yangi usul maktablari tashkil qilish orqali xalq ommasining siyosiy faolligini o'stirish maqsadini qo'yishgan edi. 1904-yilda "jamiyat xayriya" tuzilib, uning ko'magi bilan Xiva shahrida dastlabki yangi usul maktabi ochildi.

19-asr oxirlarida Xorazmda ma'naviy hayotni rivojlantirishda, jadidchilik harakatining ma'rifatparvarlik bosqichi shakllanishiga ulkan hissa qo'shgan shoir musiqashunos va davlat arbobi Komil Xorazmiydir. U xattotlik, musiqashunoslik ishlari bo'yicha ellik nafardan ortiq shogirdlar yetishtirgan. Komil Xorazmiy davlat arbobi sifatida xalqining ma'naviy

madaniyatini rivojlantirishga sarmoqli hissa qo'shgan. Uning ishtirokida va Feruz homiyligida Xiva shahrida nashriyot tashkil qilingan.

Muhammad Rahimxon II davrida matbaachilik, she'riyat va musiqa kechalarining yo'lga qo'yilishida Komil Xorazmiyning o'rni beqiyos bo'lgan. "Xorazm musiqiy tarixchasi" mualliflari Mulla Bekjon Rahmon o'g'li va Muhammad Yusuf Devonzoda shunday yozadi: "Muhammad Rahimxon Soniy Xorazm o'lkasida o'zidan boshqa kuchli va nufuzli yet bir quvvatni ko'rgach, bir xili zamonlar mutaassir bo'lib yurdi. O'zini tasalli qilajak hech bir mashg'ulot topmoqdan ojiz edi. Biroq oning atrofidiagi odamlar, xususan musiqashunos Pahlavonniyoz Mirzoboshi xonning bu holini anglab, oniy majlislar tuzmakka qiziqtirdi"[2]. Natijada Bayoni, Kamyob, Laffasiy, Avaz O'tar, Mutrib, Chokar kabi tarixchi va taraqqiyatshunos shoirlar yetishib chiqdilar. Bular o'z asarlarda mavjud tuzum illatlarini fosh etib, xalqda taraqqiyot va istiqlolga umid uyg'otdilar. Ularning asarlari jadidlarning dunyoqarashi shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Jadidchilik ma'rifatparvarlikdan kuchli siyosiy harakatgacha bo'lgan murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tdi[3]. Xiva jadidlari faoliyatida ham aynan shu yo'l ko'zga tashlanadi.

Jadidchilik harakatining asosini ma'rifatparvarlik tashkil qilganidek, maorif maktab tizimi ma'rifatparvarlik qurolidir. Ma'rifatparvar hukmdor Feruz 1884-yilda Xivada maktab ochgan. Jadidchilikning turli serqirra yo'naliishlari kabi Xiva jadidchiligi ham o'ziga xos xususiyatlari, o'zining shakllanish va rivojlanish bosqichlari bilan ajralib turadi.

20-asr boshlarida Xiva xonligi jadidchilik harakati yangiliklar tarafdiri bo'lgan amaldoorlar, mahalliy boyalar va savdo ahli, taraqqiyatshunosmusulmon ruhoniylari, madrasa mudarrislari va toliblari, marifatparvar shoirlar Xorazndagi maktab va madrasalarni, hatto islam diniga keyin kirib kelgan bid'atlarni va urf -odatlarning ayrim qismlarini isloh ilish, dunyoviy fanlarini joriy etish, savodxonlik usullarini osonlashtirish, o'quvchilarini o'z ona tilida ko'proq o'qtish va boshqa tillarni bilish kabi ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan chiqqan demokratiya va adolat, istiqlol va taraqqiyot uchun kurashuvchilar harakati hisoblanadi. Ular safida bosh vazir Islomxo'ja, qozikalon Bobooxun Salimov, shoир Avaz O'tar, devonbegi Husayn Matmurodov, savdogar Polvonniyoz xoji Yusupov, sanoatchi boy Nazir Sholikorov, matbaachi-hunarmand Otajon Abdalov, birinchi o'zbek kino foto ustasi Xudoybergan Devonov, mirzaboshi Muhammad Rasul Mirzo, xonanda-musiqashunos Matyoqub Pozachi, Otajon Safayev, ziylolar va ulamolardan Bobojon Yoqubov, Hakimboy Jonmuhammedov, Muhammadyor xoji Abdullayev, Otajon Xo'janiyozov, Rahmonbergan Yoqubov, Muhiddin Umarov, Mulla Jumaniyoz Sultonmurodov, Jumaniyoz hoji Boboniyozi, Qurbonboy Jaloyir, Xudoybergan Matniyazov, Davlatnazar Qayroq, Murod Eltuzarov, Mulla Matmurod, Mulla Abdulla Berdimurodov, Avazxo'ja, Isomiddin eshon, Nizomoxun, Sobir Yoqubov, Mulla Bekjon Rahmon o'g'li, Muhammad Yusuf Devonzoda va boshqalar kirgan. Ularning safi qirq nafardan ziyod ziyoli kishilarni tashkil qilinadi. Ular har payshanba kechasi goh Qalandarxonada, goh Qorako'z masjidida, ko'pincha Husaynbek Matmurod devonbegi o'g'lining uyida yig'ilishlar o'tkazilib, qo'shiqlar aytishgan, she'rxonlik qilishgan, erk,adolat, madaniyat va islohotga tegishli suhabatlar olib borishgan. Ular jadid adapiyoti va san'atini yaratish bilan cheklanib qolmay, yangi usul maktablari, kasalxona, pochta-telegraf ochish, o'quv qo'llanmalar yozish va nashr etishgan.

Rus bosqinchilariga qarshi kurash qahramoni Matmurod devonbegi vafotidan keyin xonlik siyosatida shahzoda Asfandiyorxon va vazir Islomxo'ja katta rol o'ynay boshladilar. Liberal marifatparvarlik kayfiyatidagi "Rus jug'rofiv jamiyat" a'zosi bo'lgan Asfandiyorxon 1904-yildan boshlab rus, tatar, turk, ozarbayjon tillarida chiqarilgan gazeta va jurnallariga obuna bo'lib, gazeta, shuningdek, geografiya, tarix, adapiyotga oid maxsus asarlari bilan tanishgan.

Ushbu harakat haqida batatsil ma'lumot beruvchi manba "Yosh xivaliklar tarixi" nomli kitob bo'lib, bu asar Xorazm Xalq Respublikasining birinchi raisi Polvonniyoz Hoji Yusupov (1861-1936) qalamiga mansubdir. Ushbu xotira kitobi uning kundalik daftarlari asosida 1926-yilda yozilgan.

Muallif, asosan, 1920-1924-yillar mobaynidagi Xorazmda, Turkiston da ro'y bergan tarixiy voqealarni o'ziga xos uslubda o'zbek tilining Xorazm shevasida, juda qiziqarli ravigsha bayon qiladi. Bu asarning qimmati va o'sha davr tarixi haqida chop etilgan boshqa kitoblardan farqi shundaki, muallif o'z ko'zi bilan ko'rgan, bilgan, eshitgan, bevosita ishtirok qilgan tarixiy voqe va hodisalarni boricha, ro'y-rost bayon qiladi.

Asar, asosan, Yosh Xivaliklar partiyasining demokratik faoliyatiga, uning xon istibdodini ag'darib, Xorazmda mustaqil xalq jumhuriyatini barpo qilish va uni mustahkamlash borasidagi ishlarga bag'ishlangan. Asarda "Yosh xivaliklar harakati" harakati haqida shunday ma'lumot berilgan: "Yosh Xivaliklar harakati XX asr boshlarida Xivada shakllangan jadidchilik harakatining bir oqimi sifatida vujudga keladi... Keyinchalik Xiva jadidlari ma'rifiy ishlar bilan shug'ullanib qolmasdan, xon tuzumiga qarshi kurash ishi bilan shug'ullanganlar. Xiva xonligida jadidchilik harakati juda katta ijtimoiy kuchga aylanib, 1914-yil avgustidan boshlab "Yosh xivaliklar harakati" deb nomlana boshladi. Bu harakatning g'oyaviy va tashkiliy jihatdan shakllanishi va mustahkamlanishi Polvonniyoz Hoji Yusupov, Bobooxun Salimov, Husainbek Matmurod Devonbegi o'g'li, Nazir Sholikorov, Mulla Jumaniyoz Sultonmurodov, Mulla Bekjon Rahmonov, Xudoybergan Devonov, Otajon Safoyev va boshqalarning xizmatlari katta"[4].

**Tahlil va natijalar.** Muhammad Rahimxon Feruz nomi bilan bog'liq XX asr birinchi choragidagi adapiy muhit qator o'ziga xosliklarga ega. Ya'ni ushbu davrda ko'p asrlik adapiy an'analar davom etishi bilan birgalikda ma'rifatparvarlik g'oyalari, yangicha fikrlar Jadallik bilan kengayib borayotgan edi. She'riyat tobora rivojlandi va undagi mavzu, asosan, ishq-muhabbat va ma'rifatparvarlik edi. Ma'rifatparvarlik g'oyalari, albatta, keyinchalik jadidchilik harakatining yurtimizda keng quloch yoyishiga sabab bo'lgan. O'z g'azzallarida ma'rifat g'oyasini ilgari surgan ba'zi shoirlar ijodidan namunalalar ko'rib o'tamiz.

Bir qancha janrlarda ijod qilgan Tabibiy ijodida ham xalqni ma'rifatli qilishga da'vatlar kuzatiladi. Xususan, shoир quyidagi musaddasida yoshlarni vaqtini behudaga sarflamasdan, ilm olishga chaqiradi:

Umring o'tkarma tomoshoi gulu gulshan ila,  
Tut barobar onikim oqil esang gulxan ila,  
Chekibon ranju balo borini jonu tan ila,  
Borho ulfat etib sohibi ilmu fn ila,  
Dushman ar qilmasa olamda modoro sen ila,  
Sen madoro qilako'r jahd etibon dushman ila.

1889-yil Xiva shahrida tug'ilgan Muhammad Yusuf Muhammad Yoqub o'g'li Chokar ham xalqni ilmli, ma'rifatli qilish uchun bir qator ishlar qiladi. Chokarning dadasi Muhammad Yoqub Xorrot Xorazmda juda mashhur mashshoq bo'lgan. Chokar o'zbek klassik adapiyoti namoyandalarining ilg'or fikr-tuyg'ularini, qarashlarini davom qildirgan. U demokrat shoир Avaz o'tar bilan zamondosh va yaqin do'st bo'lgan.

Chokarning tashabbusi bilan Xivada musiqa texnikumi — internat tashkil etiladi. Chokar uning direktori bo‘ladi va dars beradi. O‘sha yillari Chokar Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li bilan birgalikda xalq musiqasiga doir “Xorazm musiqiy tarixchasi” asar yozishadi, bu asar kitob holida 1925-yilda Moskvada nashr etilgan. Chokardan bir qancha g‘azallar ham yetib kelgan bo‘lib, u ham boshqa zamondoshlari kabi o‘z she’rlarida xalqni savodli bo‘lishga, johillikdan qochishga da’vat etadi:

Jahonda yashay olmas hech millat ilmu urfonsiz,  
Aningdekkim turalmas hayotda jism ila jonsiz.

Maorifdur jaholat dardining darmoni, fahm aylang,  
Fanoliq yotgonidur bo‘lsa har bir dard darmonsiz.

Ilmsiz kimsa boylarg‘a bo‘lub qul, o‘tkarur umrin,  
Ilm ahli kishiga bo‘limg‘ay muhtoj ham nonsiz.

Bering farzandingiz maktabga, Chokarni so‘zin tinglab,  
Jahonda yashay olmas hech millat ilmu urfonsiz.

Milliy uyg‘onish g‘oyalari shoir Avaz O‘tar she’rlarida ham namoyon bo‘ladi. Uning ma’rifatparvarlik mavzusida yozilgan she’rlarida ilgari surilgan fikrlar jadichilik g‘oyalari bilan hamohanglik kasb etishini ko‘rishimiz mumkin. Bu davda shoir ilm-ma’rifatga da’vat etuvchi bir talay she’rlar yozgan. Xususan, “Maktab” radifli g‘azalida jar yoqasiga kelib qolgan millatni ilm ma’rifatga, maorifga oshno bo‘lishga da’vat etadi. Ushbu g‘azalda “millati vayronni obod etgusi maktab” deb bejizga aytilmagan. G‘azalda xalqning ma’rifatli bo‘lishga, ularni bilimli qilishga jon kuydirayotgan shoir obrazi namoyon bo‘ladi:

Ochinglar, millati vayronani obod etgusi maktab,  
O‘qusin yoshlarimiz ko‘nglini shod etgusi maktab.

Dil-u jon birla el maktab ocharga ijтиҳод etsin,  
Nedinkim, bizni g‘am qaydidin ozod etgusi maktab.

**Xulosa.** XX asr boshlaridagi Xiva adabiy muhitida ham asosiy mavzulardan biri ma’rifatchilik g‘oyasini ilgari surish ekanligini yuqoridagi misollar va bunga o‘xshagan yana ko‘plab asarlarda ko‘rishimiz mumkin. Bu davr shoirlarining va ziyyolilarining asosiy maqsadi xalqni savodli qilish edi. Albatta, ular bunga erishdilar ham. Ularning sa’y-harakatlari bilan yangi usuldagи maktablar ochildi, yoshlarga diniy va dunyoviy bilimlar barobar o‘rgatildi. Shu sababli ma’rifatchilar xalqimizning ma’naviy va madaniy jihatdan rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. O‘zlari yashagan davrda ma’rifatchilarining ezgu g‘oyalari qoralangan bo‘lsa-da, bugungi kunda ular aytgan har bir fikr, har bir g‘oya alohida ahamiyat kasb etmoqda va ularga hurmat ko‘rsatilmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Qosimov B. va b. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. –T: “Ma’naviyat”, 2004.
2. Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. T.:Yozuvchi, 1998. 12-bet.
3. Alimova D. Jadidchilik mustaqillik davri tarixchisi talqinida. //O‘zbekiston tarixi: yangi nigoh. T.: Eldinur, 1998, 4-bet.
4. Полвонниёз Ҳожи Юсупов. Ёш хиваликлар тарихи. – Урганч: “Хоразм”, 2000, 5 б.